

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasash modellari.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili...	90
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxiy korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремиологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алтамишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO‘K: 894.354.092Iqbol:82-13+82.091

IQBOL MIRZO SHE‘RLARIDA BAND TIZIMLARI**СИСТЕМЫ СТРОФ В ПОЭЗИИ ИКБОЛА МИРЗО****STANZA SYSTEMS IN IQBOL MIRZO'S POETRY****Kirgizova Gulnaz Mamadaliyevna**

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada Iqbol Mirzo she‘rlarida band tizimlarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shoir ikkilikdan to o‘n ikkilikkacha bo‘lgan band tizimlaridan samarali foydalanib qofiyalanish va vazndagi turfaliklarni ta‘minlaydi. Fikr va ohang ta‘sirchanligini yuzaga keltiradi.

Аннотация

В статье рассматривается роль и значение строфических систем в поэзии Икбола Мирзо. Поэт эффективно использует строфы от двустиший до двенадцатистиший, обеспечивая разнообразие рифмовки и метрических форм. Это способствует созданию выразительности мысли и мелодики произведений.

Abstract

This article examines the role and significance of stanzaic structures in Iqbol Mirzo's poetry. The poet effectively utilizes stanza forms ranging from couplets to twelve-line stanzas, ensuring diversity in rhyme schemes and metrical patterns. This technique enhances the expressiveness of thought and the lyrical quality of his works.

Kalit so‘zlar: band tizimlari, qofiya, mahorat, vazn, voqebandlik, fikr va tuyg‘u, turoq, ritm, ohangdorlik.

Ключевые слова: строфические системы, рифма, мастерство, метр, сюжетность, мысль и чувство, структура, ритм, мелодичность.

Key words: stanzaic structures, rhyme, mastery, meter, thematic coherence, thought and emotion, structure, rhythm, lyrical quality.

KIRISH

Shoirning mahorati turli xil band tizimlaridan chuqur mazmunga uyg‘un ohangdorlikni yuzaga keltirishida ko‘zga tashlanadi. Betakror obraz va ifoda, qofiya va ohang, ta‘sirchan mazmun va kechinma, g‘oya va tuyg‘u, o‘ziga xos kompozitsiya va shakl, ma‘nodorlik va so‘z tovlanishlari band maydonida yuzaga chiqadi. Ma‘lumki, band (strofa) grekcha “burilish”, “muyilish” degan ma‘nolarni anglatadi[1,289]. Shuningdek, band “Mazmunning shartli tugalligi bilan farqlanuvchi she‘r misralari yig‘indisi bo‘lib, u poetik fikr, ritm jihatidan tugal bo‘lgan va qofiya tartibi bilan birlashgan she‘r bo‘laklaridan tashkil topadi... Odatda, shoir o‘z asarining xarakteriga qarab band tanlaydi”[2,299]. Shu bilan birga, “Band – alohida qofiyalanish tartibiga ega bo‘lgan she‘r bo‘laklari bo‘lib, u tugal bir fikr yoki manzarani ifodalaydi”[3,41]. Shuni ham unutmaslik kerakki, “Band(strofa) – she‘rning alohida qofiyalanish tartibiga ega bo‘lgan yirik ritmik bo‘lagidir. U o‘ziga xos tugal fikr va manzarani ifodalaydi. Band – qofiyalanish va intonatsiya bilan birikkan misralarning muayyan tartib asosida takrorlanishi. She‘r mazmuni va ritmi bandlar orqali namoyon bo‘ladi. Demak, shoir ritm, vazn, qofiya va bandlar vositasida fikr yuritadi, hayotni badiiy ifodalaydi”[4,171]. Professor U To‘ychiyev ta‘kidlaganidek, “She‘rda bandsiz musiqiylikni va uning eng birinchi elementi bo‘lgan ritmni tasavvur qilish qiyin. Bandni she‘r musiqiylikni shakllanadigan va ro‘yobga chiqadigan asosiy maydon deb atash mumkin, chunki muayyan turoq va vazn orqali shakllana boshlagan she‘r ritmi band orqaligina o‘z takomiliga erishadi; vazn band misralarida takrorlanadi; misralar esa ma‘no va intonatsiya jihatidan bir butun holda guruh-guruh bo‘lib keladi. Misralar gruppasi misralarning boshqa gruppalari orqali vazn va qofiyalanish jihatidan ma‘lum qonun asosida takrorlanadi, natijada, ma‘lum bir she‘r ritmi vujudga keladi. She‘r ritmi bandlardagi qofiyalar asosida kelib chiqqan ohangdorlik bilaan qo‘shilib, musiqiylikni maydonga keltiradi”[5,131-132].

ADABIYOTSHUNOSLIK

She'r kompozitsiyasi va mazmun-mohiyatida bandning muhim o'rnini teran anglagan Iqbol Mirzo uning ikkilikdan o'n ikkilikkacha bo'lgan turlaridan samarali foydalanadi. Fikr ta'sirchanligiva ifoda jozibadorligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Sharq mumtoz adabiyotidagi fardni bir qadar eslatib yuboruvchi Iqbol Mirzoning quyidagi satrlari paronimlar va so'z o'yini asosiga qurilgandir: "Ko'zni och, uyqudan kech! Bugun ham qolmaylik kech!"; "Ho'l bo'lmasin yuz yoshdan, Kulib o'ting yuz yoshdan!"[6,226]; "Kechib tushki uyqumdan, Qarang, qurdim uy qumdan"; "Qanaqa betatibsiz, Dumimga bet artibsiz!"; "Dadajonim har safar Der: "Bu oxirgi safar..."[6,227]. Ma'lumki, badiiy asar sarlovhasi mazmunni, g'oyaning ochqichi vazifasini o'taydi. Yuqoridagi misralarning birinchisiga shoir "Boqcha vaqti", ikkinchisiga "Boburjonning buvisiga bayram tilagi", uchinchisiga "Quruvchi Boburjon", to'rtinchisiga "Tulkixonning ukasiga doshnomi", beshinchisiga "Xizmat safariga ketayotgan dadaga e'tiroz" deya nom quyan.

Iqbol Mirzo o'zining ikkilik(distix) va uchliklarining yaratilish tarixi haqida shunday yozadi: "O'smirlikda yapon shoirlarini o'qib, qattiq ta'sirlangandim. Ana shu taassurotlar tufayli bir talay erkin mashqlar qilganman (Ularning ba'zilar 1988 yili "Yoshlik" jurnalining 8-sonida chop etilgan). Bugun yana o'sha daftarlar qo'limga tushib qoldi. O'qib ko'rib, yaxlit asar bo'lmasa-da, she'r unsurlari – parchalaridak tuyuldi"[7,57]. Shoirning chuqur falsafiy fikr singgan quyidagi ikkiliklarida matn osti ma'nolaridan samarali foydalanadi: "Men uzoq qarab qoldim unga: Judayam odamga o'xshar edi u"[7,59] satrlarida odamiylikdan yiroq shaxslar tanqid ostiga olinsa, "Bolaligimda qush tilini bilardim, Endi hayvonlar tilini ham bilaman"[7,60] misralarida inson ulg'aygani sari hayvonsifat odamlar ham borligini anglay boshlashiga ishora qiladi. "Bo'ri qarisa, Tulki bo'ladi"[7,72] ifodasida esa kuch-quvvatga to'lgan paytlari da barchaga zug'um o'tkazib, keksaygach muloyimlashib, soxta qiyofaga kirgan shaxslar tasvir etiladi. Ikkiylik bandlanishlarda shoir satrlarda ohangdorlikdan ko'ra ko'proq chuqur ma'noli falsafiy fikrlarni ifodalashga intiladi.

Uchlik(terset) asosidagi "U shunchalar g'arib ediki, Haddan tashqari bahaybat ko'rinaradi Ordeni"[7,61] misralarida olgan mukofotiga munosib bo'lmagan shaxs qiyofasi aks etsa, "Do'rmon – Abadiy o'rmon Bulbulni izlab yuribman"[7,61] misralarida shoir bulbullari tark etgan Do'rmon o'rmoni – yuksak iste'dodlar qolmagan adabiyotning halatiga ishora qiladi. Yoki, to'rtlik (katren) asosidagi "Bozorda – Shaytonning to'yxonasida Raqs tushib. Isiriq tutatib yurar Farishta"[7,61] satrlarida barcha narsa oldi-sottiga asoslangan "Shaytonning to'yxonasi" bo'lgan bozorda raqs tushib isiriq tutatib yurgan kimsa – Farishta holati o'quvchida turli mushohadalar uyg'otadi. "Qodiriyini ko'rgan, Cho'lponni ko'rgan, Usmonlarni ko'rgan jo'ka daraxti turar Hech narsa ko'rmagandek"[7,61] satrlarida sho'ro mafkurasi tazyiqlaridan yurak oldirgan va tirik "soqov"ga aylangan shaxs holati jo'ka ramzida tasvirini topgan.

NATIJA VA TAHLILLAR

Iqbol Mirzoning "oddiy arifmetika"(1998) she'ri to'rt banddan iborat bo'lib, birinchi va oxirgi bandlar beshlik, ikkinchi va uchinch bandlar to'rtliklardan tashkil topgan. She'r satrlaridagi arifmetik raqamlar bilan bog'liq so'z o'yinlari chuqur falsafiy fikr, lirik "men" ning bolalik xotiralari bilan bog'liq beg'ubor tuyg'ulari ifodasiga xizmat qiladi.

She'rning

"Taxtaga surkalib uvalanar bo'r,
Hisob-kitob oddiy, yechimi sodda.
To'qqizga beshni qo'sh – bo'ladi o'n to'rt,
To'qqizni yozamiz
va biri yodda"[7,210]

tarzdagi dastlabki banddagi tasvir bilan shoir bizni ham o'zi o'qigan sinf xonasiga olib kiradi. So'ng keyingi katrenda "bir dumalab "olti"ning "to'qqiz"ga, "ikki"ni ag'darsa "besh"ga aylanishi haqidagi fikr bilan o'ylanib turgan lirik "men" va uning o'ylamiga kirish maqsad bo'lgan qiz tasviri paydo bo'ladi. Hayot "yo'lni qayirib", "beso'roq yillarga qo'shilib yillar", "dillar ikkiga bo'linib" shoirni sinfdosh qizdan ayiradi. So'nggi band shunday yakunlanadi:

"Qaydasan, birinchi partadagi qiz?
Qarashlari toza, samimiy, sodda
Tengdoshlar, daftarga yoziq ismingiz,

Faqat biri dilda,
bittasi yodda...”

Bolalikning beg‘ubor, samimiy tuyg‘ulari natijasi bo‘lib dilda o‘rnashgan qiz qiyofasi ixcham chizgilarda aksini topadi. Yuqoridagi beshlik asosida bandlanish to‘rtlik va oltilik bilan aralash holda qo‘llanilishi “Singlimga”(2006) she‘rida ko‘rinadi.

She‘rning

“Ko‘ngil” degan so‘zga qofiya “singil”,
Singlim!
Seni desam isiydi ko‘nglim.
Yurak xinaguldek o‘ynaydi yengil,
Munisginam, singlim,
anisim, singlim!”[7,66]

tarzdagi murojaat bilan boshlangan oltilik band o‘quvchini keyingi beshlik asosidagi bandda “qirov bog‘lagan” paxta dalalariga olib kiradi:

“Esimda
qirov bog‘lagan dala,
Tumanda adashgan ikki murg‘ak jon.
Paxta jondan aziz bo‘lgan mahallar,
G‘o‘zapo‘choqdek xor bo‘lganda inson”.

O‘ttiz yoshni qarshilab yana qadirdon Farg‘ona tomon yo‘lga tushgan shoir sakkiz yashar qizchalarni paxta dalasiga yo‘llagan davrlarni achchiq xotiralar orqali tanqid ostiga oladi. Shoirning singlisiga bo‘lgan mehr tuyg‘ulari she‘r bandlari davomida paxta dalalarida sovuqdan qaqshab, jovdirab turgan yuzlab qizchalar qiyofasini namoyon etadi. Shoir she‘r bandlari davomida biron joyda “paxta yakkaxokimligi” avj olgan davrni ochiq qoralamaydi. Bu qoralov she‘rning ma‘no kontekstidan kelib chiqadi. She‘r esa bashdan-oyoq muallifning singlisiga bo‘lgan cheksiz muhabbati hamda iliq kechinmalari ifodasidan iborat. Lekin mazmun-mohiyat “inson g‘o‘zapo‘choqdek xor bo‘lgan” davrni qoralash bilan sug‘orilganini sezish qiyin emas. Ellik ikki satrdan iborat she‘ning besh bandi to‘rtlik, olti bandi beshlik, bir bandi oltilik shaklidir.

Muallif

“Meni shoir qildi o‘sha dalalar,
Meni paxtazorga ko‘minglar, o‘lsam...
Kechir meni, singlim,
g‘aflatda agar
Yomon kun yoningda bo‘lmagan bo‘lsam.

Sen borsan, yonimga kelolmas o‘lim,
Men borman, kulfatlar tentiraydi xor.
Ko‘nglimga eng go‘zal qofiya singlim
Xotirjam bo‘l, sening Iqbol akang bor!”[7,67]

deya to‘rtlik va beshlik bandlar almashinuviga asoslangan satrlarda nekbin tuyg‘ularga uyg‘un ohangdorlikni yuzaga chiqargan.

Iqbol Mirzoning “Eskartish”(2016) she‘ri oltilik bandlanishga ega. She‘rning

“Hoy, mevali daraxtga tosh otayotganlar!
Toshingiz o‘z gulingizni yulishi mumkin.
Shoxlarda
siz uchun sarxil meva tanlab –
O‘tirgan
o‘z bolangiz bo‘lishi mumkin!”[7,78]

satrlarida “shoxlarda”, “o‘tirgan” so‘zlarining alohida keltirilishi so‘z urg‘usiga, ta‘sirchan ifodaga olib kelgan.

“Asragil”(2006) she‘rida[7,73] yettilik band izchil takrorlangan. Har bir band oxirida “O‘zni, o‘zlikni, millat, milliyatni asragil!” satrlari takrorlanib, she‘r leymotivi vazifasini o‘taydi.

“Zulfiyaga qarama”(1988) she‘rida sakkizlik, to‘qqizlik va o‘n ikkilik bandlarning almashinuvi yetakchilik qiladi. Iqbol Mirzo bir she‘rda turli band tizimlaridan samarali foydalanish orqali ham

ADABIYOTSHUNOSLIK

ohangdorlikni, ham voqelikning jozibador va ta'sirchan talqinini yuzaga chiqaradi. She'ning besh bandlanishlardan iborat voqeligi shoir xotiralari bayonidan iborat.

She'ning birinchi sakkizlik bandi shoir va uning do'sti Abdullaning Zulfiya ismli kursdosh qizga oshiq bo'lishlari, "qiz talashib" janjallashishlari, oshiqligi tufayli kaltak yegan Abdullaning Zulfiyadan voz kechmaganligi tasvirlanadi.

Ikkinchi band shoirga "ko'zi tushganida miyig'ida kuluvchi aqli qiz Zulfiya" portreti tasviriga bag'ishlangan. Zulfiyaning "qo'llari ipakday mayin", "kitob ichidagi surati shoirga doimo jilmayib turadi", demak u shoirni yaxshi ko'radi. Ushbu o'n ikkilik bandda tasvirlangan voqelik shoirning Zulfiyaning o'zini sevrishiga qat'iy ishonch xulosasi bilan yakunlanadi.

Uchinchi band to'qqiz satrdan iborat bandlanishdan tashkil topgan. She'ning keyingi sakkizlik bandidagi lirik chekinishda bugungi voqelik tasviri tomon ko'chib, Zulfiyaning ikki oshiqlaridan yuz burib ketishi tasviriga bag'ishlangan.

To'rtinchi to'qqizlik bandda "hammasini bilgan aqli qiz"ning ikki yigit harbiyda yurganida o'zga yigitga "tegib ketgan"ligi voqeligi bayon etiladi.

She'ning so'nggi sakkizlik bandidagi tasvirda shoir mahorati tufayli inkor orqali iqror o'ziga xos ifodasini topgan.

"Kitobimning ichidan
Uchib tushar suvrati,
Sevmaganman men uni,
Abdul yaxshi ko'radi!
Yirtaman deb suvratin,
Yirtolmayman har kuni
Sevmaganman men uni!
Sevmaganman Zulfini!"[7,74].

Iqbol Mirzoning "Ko'klam"(1995) she'rida dastlabki uch band o'n ikkilik asosida izchil takrorlanib keladi. She'r shoirning ko'klamga murojaati bilan boshlanadi. To'qqiz oy ko'klamni intiqlik bilan kutgan shoir ko'klamdan ham muhabbat talab etar ekan, undan toza oshno ko'rmaganligini ta'kidlaydi. Saxovatiga chegara bo'lmagan ko'klamga shoirning munosabati so'nggi sakkizlik bandlanishda quyidagicha ifodalanadi:

"Kelmoq-ketmoqlikning bordur muddati,
Vaqt bilan bino bo'lgandir ko'k ham.
Yuragim hurmati, sevgim hurmati,
Meni o'z vaqtida yo'qlagin, ko'klam.
Yo'lingga qarayman hadikka to'lib,
To'qqiz oy qaynaydi shirin visoling,
Yashayman dilbandi o'lik tug'ilib,
Yangi farzand kutgan ota misoli!"[7,186].

Yuqoridagi bandda shoir mahorati kutilmagan va tutilmagan o'xshatish – dilbandi o'lik tug'ilgan, yana intiqlik va havotir bilan yangi farzand kutayotgan ota holati fikr ta'sirchanligini, tasvir hayotiyiligini, ifoda jozibadorligini ta'minlagan.

XULOSA

"Shoirdagi nuktadonlik, fikr tezligi, dunyoqarashiga xos fazilatlar, hayotni teran tahlil eta bilish, dunyoviy muammolardan xabardorlik, uning she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi"[8,58].

Xullas Iqbol Mirzo she'rda band tizimlaridagi xilma-xillikka e'tibor berar ekan, uning keng imkoniyatlari dan samarali foydalanadi. Bu o'z navbatida, qofiya tizimidagi, vazndagi turlichalikni ta'minlaydi. Fikr va tuyg'ularning ta'sirchanligini yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кватковский А. Поэтический словарь. – Москва: Сов.энциклопедия, 1966. – 376 с.
2. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 368 б.
3. Ҳомидий Ҳ., АбдуллаеваШ., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – 300 б.
4. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш бўйича ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 288 б.
5. Тўйчиев У. Ўзбек совет поэзиясида бармоқ системаси. – Тошкент: Фан, 1966. – 180 б.

6. Иқбол Мирзо. Қўнглинда нима бор билмайман. Иккинчи жилд. – Тошкент: “SHARQ” нашрёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2020. – 256 б.
7. Иқбол Мирзо. Қўзларингга термулсайдим. Биринчи жилд. – Тошкент: “SHARQ” нашрёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2020. – 248 б.
8. Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 140 б.